

**ADABIYOT DARS MASHG‘ULOTLARIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINI
O‘RGANISHDA MUSTAQIL ADABIY-IJODIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH**

Tirkasheva Guzal Baxromovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
+998 91 778 82 61

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21200107>

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyot dars mashg‘ulotlarida xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish jarayonida mustaqil adabiy-ijodiy loyihalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlilga tortilgan. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini loyiha asosida o‘rganish o‘quvchilarning badiiy-ijodiy tafakkuri, mustaqil izlanish ko‘nikmalari, milliy qadriyatlarga munosabati hamda adabiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirish vositasi sifatida yoritilgan. Maqolada adabiyot dars mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin bo‘lgan loyiha metodining mazmuni, bosqichlari, folklor materiallari asosida tashkil etiladigan ijodiy topshiriqlar va ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri ilmiy-metodik jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: *xalq og‘zaki ijodi, folklor, adabiyot ta’limi, loyiha metodi, mustaqil ta’lim, ijodiy loyiha, kompetensiya, adabiy-estetik tarbiya.*

Аннотация: в статье рассматриваются педагогические возможности использования самостоятельных литературно-творческих проектов при изучении образцов устного народного творчества на уроках литературы. Анализируется значение проектного метода в развитии творческого мышления учащихся, навыков самостоятельного исследования, интереса к национальным ценностям и литературно-эстетической компетентности. Раскрываются этапы организации проектной деятельности на основе фольклорных материалов, а также эффективность творческих заданий в образовательном процессе.

Ключевые слова: *устное народное творчество, фольклор, литературное образование, метод проектов, самостоятельное обучение, творческий проект, компетентность, эстетическое воспитание.*

Abstract: this article analyzes the pedagogical possibilities of using independent literary-creative projects in studying examples of oral folk creativity during literature lessons. The role of project-based learning in developing students’ creative thinking, independent research skills, appreciation of national values, and literary-aesthetic competence is discussed. The article highlights the stages of organizing project activities based on folklore materials and explains their effectiveness in the educational process.

Keywords: *oral folk creativity, folklore, literature education, project method, independent learning, creative project, competence, aesthetic education.*

Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchining faqat tayyor bilimlarni egallashi emas, balki mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, axborotni izlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, adabiyot fanini o‘qitishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish o‘quvchilarda milliy tafakkur, estetik did va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishning samarali vositasidir.

Xalq og‘zaki ijodi – insoniyatga tengdosh eng qadimiy san’at turi hisoblanadi. Folklor badiiy adabiyotning tamal toshidir. Olamning lisoniy manzarasiga milliy prizmadan nazar solganda ko‘rish mumkinki, har bir xalqning og‘zaki ijodi shu xalqning o‘ziga xos fe’l-atvori, badiiy-estetik tafakkuri, ruhiyati, urf-odat va an’analari, orzu-intilishlari, geografik sharoiti



va tabiatini aks ettiruvchi o‘ziga xos ko‘zgudir. Ana shu ko‘zguda yuksak umuminsoniy qarashlar – yovuzlik, zulm, adolatsizlikka qarshilik hamda yurt birligi, tinchlik, osoyishtalik, do‘stlik singari tuyg‘ular ifodasini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Ma’naviyat qadim-qadimdan insonlar dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o‘rnini, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi omil hisoblanadi. Ma’naviy qashshoq insonlar hayotda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga loqayd munosabatda bo‘ladilar. Loqaydlik esa tuzatib bo‘lmas og‘ir oqibatlariga olib keladi. Ma’naviy qashshoq kimsalarga Vatan, xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar begona. Shuning uchun ham fazilatli kekxa avlod vakillari, avvalo, yosh avlodning ma’naviy dunyosini shakllantirish chorasini rejalashtirgan. Asrlar davomida shakllangan va og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan xalq naqllari va maqollari, ertaklar va rivoyatlar, xalq qo‘shiqlari va dostonlar singari boshqa o‘nlab janrdagi folklor namunalari yosh avlodning ma’naviy dunyosini boyitish hamda ma’naviy qiyofasini shakllantirish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishini ta’minlash maqsadini nazarda tutgan holda yaratilgan. Xalq og‘zaki ijodi, tom ma’noda, xalq pedagogikasi zaminini tashkil etgan.

Xalq og‘zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyati shundaki, uning hamma janrlarida eng ezgu gumanistik g‘oyalar yetakchi o‘rin egallaydi, har bir turi farzandlar kamolotini mukammallashtirish uchun yordam beradi. Misol uchun, xalq og‘zaki ijodida eng keng tarqalgan janr hisoblanuvchi maqollar bolalarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini o‘stiradi, bilim boyligini kengaytiradi va, shu bilan birga, muxtasar jumlar orqali butun boshli bir ma’rifiy g‘oyani ifodalaydi. Topishmoqlar bolalarning fikrini teranlashtirib, ularni hozirjavoblikka undaydi. Afsona va rivoyatlar esa har doim o‘quvchi uchun qiziqarli manbadir, chunki ularda fantastik obrazlar orqali qahramonlar shakllantiriladi, shu sababli yosh avlodning bu janrga qiziquvchanligi ortadi. Tez aytishlardan ko‘proq foydalangan bolalarning talaffuzi chiroyli, nutqi esa ravon bo‘ladi. Xalq qo‘shiqlari o‘zining mazmunida xalqning quvonch-u shodligini, g‘am-tashvishlarini hamda orzu-umidlarini aks ettiradi. Xalq ertaklari bolaning badiiy fantaziyasini oshiradi, bola ertak qahramonlari bilan birgalikda ko‘plab sarguzashtlarni boshidan kechirganmdok his qiladi o‘zini. Bir so‘z bilan aytganda, yuqorida tilga olingan folklor janrlarining vazifasi bir maqsadga – o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodi xalqning ko‘p asrlik hayot tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va badiiy tafakkurini o‘zida aks ettiruvchi ma’naviy merosdir. Folklor namunalari o‘rganish jarayonida o‘quvchi nafaqat badiiy matnni tahlil qiladi, balki uning yaratilish tarixi, janriy xususiyatlari, tarbiyaviy mohiyati va estetik qiymatini ham anglaydi [1, 12-b.].

Adabiyot darslarida xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘rganishda loyiha metodidan foydalanish o‘quvchilarni faol subyektga aylantiradi. Bunda o‘quvchi ma’lum bir mavzu yuzasidan mustaqil izlanadi, material to‘playdi, tahlil qiladi va yakuniy ijodiy mahsulot yaratadi. Folklor namunalari oddiy o‘qish va qayta hikoyalash o‘quvchining bilim faoliyatini to‘liq namoyon eta olmaydi. Mustaqil adabiy-ijodiy loyihalar esa o‘quvchini izlanishga, muammoni hal qilishga va yangi g‘oya yaratishga yo‘naltiradi. Masalan, 8–9-sinflarda quyidagi loyihalarni tashkil etish mumkin:

- “Mahallamiz folklori” loyihasi;
- “Xalq maqollarida milliy qadriyatlar ifodasi” loyihasi;
- “Topishmoqlar poetikasi” loyihasi;
- “Xalq dostonlarida qahramonlik motivlari” loyihasi;
- “Mavsumiy marosim qo‘shiqlarining badiiy xususiyatlari” loyihasi va boshqalar.

Bunday loyihalar o’quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantiradi. Loyiha metodining asosiy mohiyati ham o’quvchini mustaqil faoliyatga jalb qilish va amaliy natija yaratishga yo’naltirishdan iborat [2, 45-b.]. Masalan, 8–9-sinf Adabiyot dars mashg’ulotlarida xalq og’zaki ijodi namunalari (maqollar, topishmoqlar, dostonlar, ertaklar, rivoyatlar, afsonalar, marosim qo’shiqlari)ni o’rganish asosida o’quvchilar mustaqil ravishda quyidagi ilmiy-ijodiy loyiha ishlarini yaratishlari mumkin bo’ladi (jadvalga qarang):

1-jadval

No	Ilmiy-ijodiy loyihalar	Loyiha mavzulari	Amalga oshirish shakllari
1.	Folklor namunalarini to’plash va tadqiq qilish loyihalari	“Mahallamizdagi xalq maqollari va ularning tarbiyaviy ahamiyati” “Oila a’zolaridan yozib olingan ertak va rivoyatlar” “Hududiy folklor namunalarining o’ziga xosligi” “Maqollar orqali milliy qadriyatlar”	Intervyu So’rovnoma Maqollar to’plami Mini ilmiy maqola Slaydli taqdimot
2.	Folklor va zamonaviy hayot qiyosi	“Qadimiy maqollar va bugungi yoshlar hayoti” “Doston qahramonlari va zamonaviy ideal obraz” “Folklordagi axloqiy qadriyatlarning bugungi ahamiyati”	Tahliliy esse Jadval Diagramma Taqqoslash loyihasi
3.	Ijodiy sahnalashtirish loyihalari	Ertak sahnalashtirish Dostonlardan parchalar Topishmoq kechasi Maqollar teatrlashtirilgan ko’rinishi	Video loyiha Spektakl Sinf tadbiri Rolli o’yin
4.	Raqamli folklor loyihalari	“Elektron maqollar lug’ati” “Folklor podkast” “Ertaklar audio kitobi” “Milliy folklor blogi”	XOI namunalarining PDF to’plami Audio yozuv YouTube/video material Prezentatsiya
5.	Ilmiy-tadqiqot yo’nalishidagi loyihalar	“8–9-sinf adabiyotida o’rganiladigan folklor janrlari” “Folklorning yoshlar tafakkuriga ta’siri” “Maqol va topishmoqlarning lingvistik xususiyatlari” “Folklor orqali kompetensiyalarni shakllantirish”	Ilmiy maqola Konferensiya ishi Tadqiqot loyihasi Metodik tavsiya
6.	Mahalliy madaniy meros loyihalari	“Hududimiz baxshichilik an’analari” “Mahalliy marosim folklori” “Qadimiy urf-odat va folklori”	Fotoalbom Hujjatli video Mahalliy tarixiy tadqiqot

Mustaqil ilmiy-ijodiy loyihalar

Adabiyot dars mashg’ulotlarida xalq og’zaki ijodi namunalarini o’rganish bo’yicha eng samarali loyiha shakllari sifatida ilmiy maqola, folklor albomi, video loyiha, taqdimot, sahna ko’rinishi, elektron lug’at hamda so’rovnoma asosidagi tadqiqotlarni keltirish mumkin. Ushbu loyihalarni amalga oshirish natijasida o’quvchiarda tadqiqotchilik, mustaqil fikrlash, nutq madaniyati, ijodkorlik, milliy qadriyatlarga hurmat, axborot bilan ishlash hamda jamoada ishlashkabi ko’nikmalar shakllanishi bilan bir qatorda ularda milliy va umummadaniy kompetensiyalar shakllanadi.

8-sinflarda ko’proq ertak, maqol, topishmoq, rivoyatlar asosida; 9-sinflarda xalq dostonlari, xalq baxshilari va baxshichilik, epik folklor merosi hamda folklor poetikasi asosida murakkabroq ilmiy loyihalar tashkil etish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Xalq og’zaki ijodi namunalarini o’rganishda loyiha faoliyatini quyidagi bosqichlarda tashkil etish mumkin:

1. Tayyorgarlik bosqichi. Bunda o’qituvchi loyiha mavzusini belgilaydi hamda loyihaning maqsad va vazifalarini sinf o’quvchilariga tushuntiradi.

2. Izlanish bosqichi. Ushbu bosqichda sinf o’quvchilari ma’lum guruhlariga bo’lingan holda folklor materiallarini to’plashadi, manbalarni o’rganishadi, suhbat va kuzatishlar olib borishadi.

3. Ijodiy faoliyat bosqichi. Bu bosqichda o’quvchilar to’plangan folklor materiallari asosida taqdimot, albom, videoloyiha, maqola yoki ijodiy ish tayyorlaydilar.

4. Yakuniy baholash bosqichi. Bunda loyiha natijalari himoya qilinadi va baholanadi.

Loyiha faoliyati o’quvchining kommunikativ, axborot bilan ishlash va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [3, 78-b.].

Xalq og’zaki ijodi namunalarini o’rganishda loyiha metodining afzalligi shundaki, bunda o’quvchi folklor matnlarini tayyor ma’lumot sifatida emas, balki tadqiqot obyekti sifatida qabul qiladi. Chunki, bu materiallarni topishda, uni yig’ishda yosh tadqiqotchi sifatida bevosita o’zi ishtirok etadi. Masalan, maqollarni o’rganishda o’quvchi ularning mazmunini tahlil qilish bilan cheklanmay, uni xalq hayoti, urf-odatlar va dunyoqarashi bilan bog’laydi. Topishmoqlar ustida ishlash jarayonida esa mantiqiy tafakkur va obrazli fikrlashini rivojlantiradi. Ushbu jihatlariga ko’ra adabiyot fani dasturida xalq og’zaki ijodi namunalari sinflar kesimida tadrijiylik asosida berib boriladi. Sababi “folklor xalqning tarixiy xotirasi va ma’naviy tajribasini ifodalovchi badiiy hodisa sifatida yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi” [4, 31-b.].

Loyiha metodida o’qituvchi an’anaviy bilim beruvchi emas, balki tashkilotchi va yo’naltiruvchi (fasilitator) vazifasini bajaradi. U o’quvchilarga folklor manbalarini izlab topish, uni tanlash, tadqiqot yo’nalishini belgilash va natijalarni taqdim etishda metodik yordam beradi. Bu jarayonda o’quvchi faoliyatining mustaqilligi, ijodkorligi va mas’uliyati oshadi. Natijada adabiyot darsi oddiy o’zlashtirish jarayonidan ijodiy izlanish maydoniga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot dars mashg’ulotlarida xalq og’zaki ijodi namunalarini mustaqil adabiy-ijodiy loyihalar asosida o’rganish o’quvchilarning bilim faoliyatini faollashtiruvchi eng samarali metodlardan biri ekanligi olib borgan tajriba-sinov ishlarimizda o’zisbotini topdi. Ushbu yondashuv orqali o’quvchilarda milliy madaniy merosga hurmat, ijodiy fikrlash, adabiy-estetik, tadqiqotchilik ko’nikmalari va milliy va umummadaniy tayanch kompetensiyasi rivojlanadi.



Loyiha metodidan foydalanish folklor materiallarini chuqur o‘zlashtirish, ularning badiiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib berish hamda zamonaviy ta’lim talablariga mos ijodkor shaxsni shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayev M. O‘zbek folklorshunosligi asoslari. – Toshkent: Fan, 2008. – 240 b.
2. Полат Э.С. Нове педагогические и информационне технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2010. – 272 с.
3. Беспалко В.П. Слагаеме педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989. – 192 с.
4. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – 304 b.